

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

3-2023

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>A.I.Tuychiyev</b>	
Uzluksiz ta'lim jarayonida o'quvchilarda intizomlik munosabatini shakllantirish .....	119
<b>R.K.Boyqo'zieva</b>	
Milliy madaniy merosimizni o'rganishda talabalar intellektual madaniyatini rivojlantirishning ijtimoiy jarayonlari .....	122
<b>U.L.Kuchkarov</b>	
5-7 Yoshli gimnastikachilarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish.....	126
<b>N.A.Niyazova</b>	
Smart-jamiyatga o'tish kontekstida ta'limni axborotlashtirishning zamonaviy ilg'or pedagogik xamkorligi .....	130
<b>S.O'.Boybo'riyeva</b>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq odobini shakllantirish muammolari.....	137
<b>N.S.Qanoatova</b>	
Talabalarning axborot texnologiyalari vositasida mustaqil ta'lim olishining nazariy-pedagogik asoslari .....	141
<b>O.M.Karimov</b>	
O'quvchilarda badiiy-ijodkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik zarurati .....	146
<b>S.A.Qo'chqorov</b>	
Chaqiriqqacha boshlang'ich tayyorgarlik elementlari vositasida talabalarni harbiy xizmatga tayyorlashda vatanga fidoiylilik tushunchalarini singdirishning dolzarbligi .....	151
<b>I.A.Imomov</b>	
Zamonaviy yondashuvlar asosida oliy ta'lim jarayonida talabalarda yuzaga keladigan nizolarning pedagogik tahlili .....	156
<b>Sh.Mo'minov, T.Mo'minov</b>	
Notiqlik va vatanparvarlik uyg'unligining lingvokulturopedagogik tadqiqi .....	161
<b>B.X.Baydjanov, N.X.Quziyeva</b>	
Boshlang'ich sinflar o'quvchilarida ijodiy tasavvurni rivojlantirish imkoniyatlari .....	164
<b>D.O'.Yusupova</b>	
Chet tili o'qitishning modellari haqida.....	168
<b>A.I.Soyibnazarov</b>	
O'quvchilarning ijodkorlik qobiliyatlari va ularni rivojlantirishning falsafiy, pedagogik va psixologik asoslari.....	172
<b>A.M.Toshpo'latov</b>	
Yoshlarni xarbiy xizmatga jismonan chidamlilik ruhida tarbiyalash metodikasi .....	177
<b>Sh.X.Azamov</b>	
Zamonaviy ta'lim jarayonida loyihalash faoliyatini tashkil etish .....	183
<b>A.Tadjibaeva</b>	
Ta'lim jarayonidagi inklyuzivlik teng ta'lim olishni ta'minlash omili sifatida .....	187
<b>F.V.Xalilov</b>	
Talabalar mustaqil ta'limining bugungi holati va uni samarali tashkil etishda didaktik vositalardan foydalanish.....	194
<b>M.M.Kataeva</b>	
Ta'lim jarayonida mobil ta'limning tahlili va tavsiyalar .....	198
<b>E.K.Muxtarov</b>	
Ikki o'lchamli potensial o'radagi zarrachaning kvant holatini modellashtirish .....	203
<b>M.M.Tojiboyev, D.S.Yunusova, M.R.Xursantova</b>	
Mustaqil darslarning asosiy shakllari va tashkil etilishi .....	208
<b>U.Sh.Abduraximova</b>	
Bo'lajak tarjimonlarning lingvomadaniy va kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari.....	212
<b>B.X.Baydjanov, Sh.I.Xolmatova</b>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini badiiy asarlarni ifodali o'qishga o'rgatish texnologiyalari.....	220
<b>A.U.G'ofurov</b>	
Bo'lajak jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarining sport turizmiga tayyorlashning o'ziga xos xususiyatlari .....	224

**O'QUVCHILARDA BADIY-IJODKORLIK KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING  
IJTIMOIY-PEDAGOGIK ZARURATI****СОЦИАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ НЕОБХОДИМОСТЬ РАЗВИТИЯ  
ХУДОЖЕСТВЕННО-ТВОРЧЕСКИХ НАВЫКОВ У ШКОЛЬНИКОВ****SOCIO-PEDAGOGICAL NEED FOR THE DEVELOPMENT OF ARTISTIC AND CREATIVE  
SKILLS IN PUPILS****Karimov Oybek Mo'minjon o'g'li<sup>1</sup>****<sup>1</sup>Karimov Oybek Mo'minjon o'g'li**

– Farg'ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

**Annotasiya**

*Mazkur maqolada o'quvchilarda badiiy-ijodkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish zarurati, o'quvchilarning badiiy-ijodkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishning asosiy maqsadi – yosh avlodni har tomonlama yetuk, jamiyatimiz taraqqiyoti uchun zarur bo'lgan barkamol insonlar etib shakllantirish ekanligi to'g'risidagi fikr-mulohazalar bayon qilingan.*

**Аннотация**

*В данной статье рассматривается необходимость развития художественно-творческих способностей у учащихся, основной целью развития художественно-творческих способностей учащихся является формирование подрастающего поколения зрелых во всех отношениях, всесторонне развитых людей, необходимых для развития нашего общества. сделаны.*

**Abstract**

*In this article, the need to develop artistic-creative skills in students, the main goal of developing artistic-creative skills of students is to form the young generation mature in all respects, well-rounded people necessary for the development of our society. comments are made.*

**Kalit so'zlar:** pedagogik-psixologik, badiiy-ijodkorlik, zamonaviy dunyoqarash, ijtimoiy zarurat, uzluksiz ta'lim, individual sifatlar, barkamol inson, ta'lim standartlari, Ta'lim va tarbiya, ilmiy-metodik.

**Ключевые слова:** педагогико-психологический, лингвокультурологический, современное мировоззрение, социальная необходимость, непрерывное образование, индивидуальные качества, экономическое развитие, образовательные стандарты, образование и обучение, научно-методический.

**Key words:** pedagogical-psychological, linguistic and cultural, modern outlook, social necessity, continuous education, individual qualities, economic development, educational standards, Education and training, scientific-methodical.

**KIRISH**

Bugungi kunda o'quvchilarning badiiy-ijodkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishning asosiy maqsadi – yosh avlodni har tomonlama yetuk, jamiyatimiz taraqqiyoti uchun zarur bo'lgan barkamol insonlar etib shakllantirishdir. Barkamol inson o'zida ma'naviy va jismoniy yetuklikni mujassam etadi. O'quvchilarning badiiy-ijodkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish uchun birinchi galda xalq og'zaki ijodi, xalq ertaklari, hikoyalar, afsonalar, bolalar ensiklopediyasi hamda tasviriy ifodani aks ettiruvchi bolalar kitoblari asosiy o'rinni tutadi. Bundan tashqari sharq mutafakkirlarining merosi, she'r va g'azallari, badiiy ijod namunalari dasturilamal bo'lib xizmat qiladi. Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshbandiy, Al-Buxoriy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn - Sino, Muhammad al-Xorazmiy, Abulqosim Firdavsiy, Amur Temur, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur singari jahonga taniqli bir necha aql egalarning ijtimoiy-siyosiy, falsafiy-ta'limiy qarashlariga tayanib ish ko'rilsa, o'quvchilarning ijodiy tasavvurini rivojlantirish ishlari yanada mukammallik asb etadi.

Markaziy Osiyoda ta'lim metodlarining rivojlanish tarixi o'rganilganda turli ta'lim usullari amaliyotda qo'llanganini ko'rish mumkin. Jumladan, Abu Ali ibn Sino "Tadbir al - ma'nozil" asarida yosh bolalarni tug'ilganidan boshlab voyaga yetgunigacha ma'lum tartibda tarbiyalab borish lozimligini aytadi. U bolalarni yakka tartibda o'qitishdan ko'ra jamoa tartibida o'qitishni afzal deb biladi va bu usulning ustunligi haqida shunday deb yozadi: "O'quvchilar o'qish va tarbiya davomida ilmga chanqoqlik sezadilar. O'quvchilar birga bo'lganlarida doim bir-birlari bilan gaplashadilar va bu bilan o'z tasavvuri va nutqlarini rivojlantiradilar"[1].

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Ijodiy shaxsni tarbiyalash muammolari Yan Amos Komenskiyning tadqiqotlarida alohida o'rinni tutgan bo'lib, u borliqni o'rganishga yordam beruvchi shaxs sezgi organlarining bilish tizimidagi yetakchi o'rinni egallashini ta'kidlagan, bilish jarayonlarining rivojlanishida empirik, ilmiy va amaliy bosqichlarini, bilishning asosiy manbalari bo'lgan ong va sezgilar xususiyatini tavsiflab bergan.

## PEDAGOGIKA

Respublikamiz pedagog olimlari S.Nishonova, M.Quronovlarning tadqiqotlarida o'quvchi shaxsining ma'naviy-axloqiy ongini shakllantirish asosida barkamol avlodni voyaga yetkazish va barkamol shaxsni shakllantirish konsepsiyalari yaratilgan [2].

Psixologik-pedagogik va uslubiy adabiyotda bolaning ijodiy rivojlanishiga qaratilgan vazifalar keng tarqalgan, ammo ular tizimda ro'yxatga olinmagan, hech qanday ko'rsatkichlar ishlab chiqilmagan. O'quvchilarning darsda badiiy-ijodiy tasavvurini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan pedagogik shart-sharoitlar aniqlanmagan.

Tadqiqotimizda konseptual va atamashunoslik apparatlarini ochib berish maqsadida ijodkorlik, psixologik va pedagogik tadqiqotlardagi ijodiy tasavvur qanday tushunilganligini, bunyodkorlik va ijodkorlik bilan qanday bog'liqligini aniqlashga harakat qildik.

“O'zbek tilining izohli lug'ati”da - “ijodiylik, ijod, yaratuvchilik bilan bog'liq bo'lgan ijodiy faoliyat, ijodiy mehnat” sifatida ta'riflangan.[3] Pedagogik lug'atlarda: “ijodkorlik - tajribani qayta tashkil etish va yangi bilimlar va ko'nikmalar kombinatsiyasini shakllantirish asosida yangi narsani ishlab chiqaradigan faoliyatdir,” - deb keltiriladi.

Ijodkorlik turli darajalariga ega. Bir darajadagi ijodkorlik mavjud bilimlarni qo'llash bilan tavsiflanadi; boshqa darajadagisi esa ob'ektlar yoki bilim sohalarining odatdagi ko'rinishini o'zgartirishda yangicha yondashuv deb baholanadi.

Ijodiylik, ijodkorlik masalalari bo'yicha o'tgan yillar davomida professor Sh.S.Sharipov, Ch.T.Shokirova, N.G.Alovutdinova, M.Abdullayeva, A.R.Hamroyev, B.R.Adizov, Z.T.Nishanovalar bir qator izlanishlar olib borgan.

Sh.S.Sharipov “O'quvchilar kasbiy ijodkorligi uzviylikini ta'minlashning nazariyasi va amaliyoti” nomli doktorlik dissertatsiyasida: “O'quvchilar ijodiy faoliyatini tashkil qilishda ikki o'zaro bog'liq vazifani e'tiborga olish lozim. Ularning birinchisi – o'quvchilar ijodiy faoliyatida mustaqil fikrlashni rivojlantirish, bilim egallashdagi intiluvchanligi, ilmiy dunyoqarashini shakllantirishi bilan; ikkinchisi – o'zlashtirgan bilimlarni ta'limda va amaliy faoliyatda mustaqil qo'llay olishga o'rgatish bilan belgilanadi” - deb ta'kidlaydi.[4] Sh.S.Sharipovning keltirib o'tgan vazifalariga tayangan holda o'quvchilarning nafaqat kasbiy ijodkorligini, balki ijodiy faoliyat jarayonini bolalarning kichik yoshidan boshlab shakllantirish, boshlang'ich sinf davrida ularning tasavvurini boyitish orqali aqliy ko'nikmalarini rivojlantirib borish, o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erishishlarida turli yechimlarni topib, to'g'ri qaror chiqarish ko'nikmalariga odatlantirish orqali tashkil etish mumkin. Tadqiqotimizda o'quvchilarning ijodiy tasavvurini rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulotlarning ayrimlarida o'quvchilarni kasbga yo'naltirishning ba'zi belgilari keltirib o'tilgan.

Zehnllilik, topqirlik, sinchkovlik, qiziquvchanlik, izlanuvchanlik sifatleri mustaqil va ijodiy faoliyatni tashkil qilishning asosiy omillari hisoblanadi. Ta'lim jarayonining ushbu asosda tashkil etilishi o'qituvchi va o'quvchi muloqotini individual va differensial yondashuvga asoslangan innovasion texnologiyalarni joriy etishni taqozo etadi. Pedagogikada innovasion yondashuvni joriy etishda ijodkorlik faoliyatining ma'naviy, didaktik, texnologik, tashkilotchilik kabi turlaridan keng foydalanish mumkin.[5]

Ma'naviy ijodkorlik – o'qituvchi va o'quvchilar orasida ma'naviy axloqiy sohada yangi sifatli natija beruvchi takrorlanmas o'ziga xos yondashuvga asoslangan faoliyat turi.

Didaktik ijodkorlik – o'quv materialini tanlash, loyihalash hamda o'quvchilar o'zlashtirishining yangi yo'nalishlarini ishlab chiqishga asoslangan faoliyat turi.

Texnologik ijodkorlik yuqori natijaga erishish imkonini beruvchi yangi tizimlar, jarayonlar va vaziyatlarni izlash hamda yaratish bilan bog'liq faoliyat turi bo'lib, u o'qituvchi va o'quvchi faoliyatini butunlay qamrab oluvchi ijodkorlikning eng murakkab turi hisoblanadi. Ushbu ijodkorlikning o'ziga hosligi yangilik elementlarini texnologiyaga o'tkazish, uning samaradorligini tubdan o'zgartirishga qaratilganligi bilan izohlanadi.

Tashkilotchilik ijodkorligi – rejalashtirish, nazorat, resurslarni taqsimlash va safarbar qilish, tashqi muhit bilan aloqa, o'quvchilar va o'qituvchi orasidagi bog'lanishning yangi usullarini yaratishni tashkil qilish va boshqarishdagi ijodkorlikdir. Bizning tadqiqotimizda pedagogikada innovasion yondashuvni joriy etishda ijodkorlik faoliyatining didaktik ijodkorlik va tashkilotchilik ijodkorligi turlariga tayanish mumkinligini ta'kidlab o'tish zarur.

Ijodkorlik jarayonida maqsaddan tashqari inson xususiyatlarining psixologik (ishonch hosil qilish, munosabat, baho berish, did, urf-odatlar), pedagogik (ta'lim berish va ta'lim olish, tarbiyalash va tarbiyalanganlik) jihatlarini ham hisobga olish kerak.[6]

B.S.Abdullayeva “Intellektual imkoniyatlarsiz o'quvchining mehnatga ijodiy munosabatlarini shakllantirish turli o'quv fanlari mazmunini o'zaro uyg'unlashtirish asosida amalga oshiriladi.” – deb aytib o'tgan.[7]

Ch.T.Shokirova: “Ijodiy faoliyat bizning kundalik hayotimizni jozibaliroq qiladi; fan va san'atni ijodsiz tasavvur qilib bo'lmaydi, ijodsiz matematika, ona tili va boshqa fanlar taraqqiyotini tasavvur qilish mumkin

emas. Biz har doim murakkab fikrni ifodalaganimizda yoki oq qog'ozni matn bilan qoraytirganimizda ijod qilamiz. Agar shu ishni samarali va g'ayrioddiy tarzda uddalay olsak bizni rosmona ijod kishisi deb atash mumkin," – deb o'zining ta'rifini keltirgan.[8] Boshlang'ich sinflarda ijodiy faoliyat ularning yangi bilimlarni o'zlashtirishlarida, o'rganganlariga nisbatan mustaqil fikrlarini bayon qilishlarida, tasavvur qilish bilan birga ijodiy fikrlashga o'rgatishda katta yordam beradi.

### NATIJALAR

Psixologlarning ta'kidlashicha, har bir dahada uning bolaligidan boshlab "g'ayritabiiy" alomatlar mavjud bo'lmay, ular hayotiy jarayonlar, atrofdagi shaxslarning xatti-harakatlarini kuzatish, ularga taqlid qilish, kitoblarni o'qish orqali yuksak darajaga erishgan. Masalan, Alisher Navoiyning "psixologik portreti"ni yaratgan olimning aytishicha, yosh Alisherda ruhiy quvvat, qobiliyat, tinimsiz mehnat, fikr, mulohaza bilan uyg'unlashib, uning talantini yuzaga chiqarishga ko'maklashgan. Demak, bolalarni kichikligidan o'rab turgan muhit, ko'z o'ngida namoyon bo'lgan jarayonlar, voqea-hodisalar ularning kelajakda qanday sifatlarga ega bo'lishini, o'z qobiliyatlarini namoyon etishlarida asos bo'lishi mumkinligini belgilab berishi mumkin. Ularning tasavvurida hosil bo'lgan, gavdalangan narsalar bir kun kelib maqsadga aylanishi bu – hayot qonunidir.

Ingliz olimi Xeyes o'rtachadan yuqoriroq intellekt sohibi va ba'zi bir ma'lum ko'nikmalarni egallagan har bir inson hatto buyuk asarni ham yaratishi mumkin degan fikr tarafdori edi. U: "Ijodiy va ijodiy bo'lmagan odamlarni ajratuvchi qandaydir kognitiv qobiliyatlar yo'q, " – deb ta'kidlar edi. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib bizning ko'pchiligimiz ijod uchun zarur barcha narsalarga ega ekanligimizni, ijodiy fikrlash va ijodiy tasavvurning ancha sodda jarayonlardan iboratligini, barchamiz "shoh asar"lar yaratma olishimiz, faqat buning uchun boy tasavvurga ega bo'lishimiz lozimligini anglab yetamiz.

N.G.Alavutdinova ona tili darslarida ijodiy fikrlash ko'nikmasini shakllantirish masalasida olib borgan tadqiqotlarida: "Umumta'lim maktablari ona tili darslarida o'quvchilarning ijodiy fikrlash faoliyatlarini shakllantirish, malakalarini hosil qilishda aqliy harakatlarga tayanish zarurdir" deb hisoblaydi. Ularni quyidagi turlarga ajratib ko'rsatadi.[9]

Perseptiv faoliyat – harakatlar natijasida atrofdagi predmetlar va hodisalar to'g'risida yaxlit obraz shakllanadi;

Mnematik faoliyat – narsa va hodisalarning mohiyat va mazmuniga aloqador materialning eslab qolinishi, esga tushirilishi hamda esda saqlab turilishi bilan bog'liq;

Fikrlash faoliyati – aql, fahm-farosat vositasida turli xil muammolar, masalalar va jumboqlarni yechishga qaratilgan;

Imajitiv faoliyat – ("imaje" – obraz so'zidan olingan) ijodiy jarayonlarda xayol va fantaziya vositasida hozir bevosita ongda berilmagan narsalarning xususiyatlarini anglash, tasavvur qilishni taqozo etadi.

Ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishda ijodiy faollik, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish uchun ijodiy tasavvur qilish eng muhimi, chunki bu haqiqatning yangi, muhim xususiyatlarini kashf qilish imkonini beradi.

Ijodkorlik tushunchasi yangilikning vujudga kelishi, tasavvur yaratgan tasvirlarning o'ziga xosligidir. A.V.Petrovskiy ijodiy tasavvurni quyidagicha tasvirlaydi: «Yaratuvchi tasavvur, yangi o'ylaydigan tasavvurdan farqli o'laroq, asl va qimmatbaho mahsulotlarda yaratilgan yangi tasvirlarni mustaqil ravishda yaratishni nazarda tutadi».[10]

Ta'limni ijodiy tashkil etishning pedagogik jihatlari B.R.Adizovning "Boshlang'ich ta'limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari" nomli doktorlik dissertatsiyasida keng yoritilgan. Uning yozishicha, ijodiy ta'limni tashkil etish – bu o'quv faoliyati bilan o'quv materiali o'rtasidagi aloqalarni yuzaga chiqarishdir. Demak, ta'limda ijodiy faoliyatni olib borishda "o'qituvchi <—> o'quv materiali" sifatida tahlil qilish mumkin. Bu o'qituvchi ta'sirida o'quv materialining bir holatdan ikkinchi holatga – o'quvchilar hali o'zlashtirib ulgurmagani bilimlardan o'rganilgan, atroflicha tahlil qilingan, to'liq o'zlashtirilgan bilimlar shakliga o'tishi ijodiy faoliyat hodisasi sifatida tahlil qilinadi.

### MUHOKAMA

Ijodiy shaxsning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishda bir qator qarashlar mavjudligini ko'rsatib o'tish mumkin. G.Martindelening ta'kidlashicha, ijodiylik shaxsning bilish malakasiga qaraganda muhimroq hislat hisoblanadi. Boshqa tomondan ijodiy shaxsning o'zaro bog'liq bo'lgan hislatlarining to'plami emas, balki uning umumiy hislatidir.[11]

Z.T.Nishanova o'zining doktorlik dissertatsiyasida mustaqil ijodiy fikrlashning ko'plab ta'riflarini tahlil qilib, ijodiy fikrlashning modelini yaratadi. U ijodiy fikrlashni tasavvur, tushuncha, bilim, ko'nikma, fikr, e'tiqod va motivatsiyaga asoslangan holda amalga oshirish lozimligini ta'kidlab: "Turli yoshdagi o'quvchilarda mustaqil ijodiy tasavvurni shakllantirish hamda rivojlantirishning asosiy vositalaridan biri – bu muammoli vaziyatlarni yaratish jarayonidir," deb aytib o'tgan. Muammoli vaziyat yuzaga kelganda tasavvurimizda mavjud bo'lgan turli yechimlar ko'z oldimizda gavdalanadi. Muammoning yechimini izlash

## PEDAGOGIKA

jarayonida tasavvurimizni to'raligicha ishga solamiz. Bu bevosita fikrlar xilma-xilligiga olib keladi va mustaqil fikr yuritishga o'rgatadi. [12]

Manbalarda keltirilishicha, ushbu atamani biroz boshqacha tushunish ham mumkin. Ijodkorlik – inson ijodiy tasavvurining o'ziga xos xususiyati bo'lib, u aslida boy tasavvuri orqali ongi yuksalishini, yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga tayyor ekanligini bildirishi mumkin.

Fanning tadirijiy taraqqiyotida tasavvur tushunchasi va uni rivojlantirish muammosini o'rganish asta-sekin psixologiyadan pedagogikaga, undan metodika sohasiga ko'cha boshladi. Natijada pedagogika va metodika sohasida izlanishlar o'tkazildi. Qator ilmiy tadqiqotlarda o'quvchilar tasavvurini rivojlantirish muammosi yoritildi. O'tgan yillar davomida Q.S.Jumaniyozov, K.A.Farfiyeva, S.Rahimov, X.Tillashevlar bir qator izlanishlar olib borganlar.

Q.S.Jumaniyozov "Umumta'lim maktab o'quvchilarining geometrik tasavvurlarini rivojlantirish metodikasi" nomli dissertasiyasida "O'quvchilarning tasavvuriga berilayotgan ob'yektlar garchand to'liq, atrofligicha ishlangan bo'lishiga qaramasdan, boshlang'ich holatlarda o'quvchilar uni to'liq tasavvurga keltira olmaydi. Bunday holda esda saqlash yetarli darajada ishlamasligi uni to'liq tafakkurga olib chiqish imkonini bermaydi. Bu esa o'z navbatida tasavurning to'liq bo'lishini ta'minlay olmaydi," – deb yozib, tasavvur hosil qilishning bir qancha usullarini yoritib bergan.[13]

K.H.Rahimova maktabgacha yoshdagi bolalar ma'naviy tasavvurlari shakllanishida roli o'yinlarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini yoritib bergan. Uning ta'kidlashicha, tasavvurlar bolalarda darhol va osonlikcha shakllanmaydi. Ularning rivojlanishi jamiyatdagi asosiy o'zgarishlar, bola tarbiyalanadigan ma'lum muhit va unda qabul qilingan qadriyatlar, bilimlarning qanday usullar bilan yetkazilishiga qarab o'zgarib boradi. Muallif faoliyatning mazmuni, maqsadi, vositasi, natijasiga umumiy tavsif berib, tasavvurni rivojlantirishning o'ziga xos jihatlari ajratib ko'rsatgan.

Tasavvurni asosiy faoliyat mezonlari bo'yicha: ilmiy (matematik, lingvistik); ijodiy (musiqiy, adabiy, badiiy) turlarga bo'lish mumkinligi psixologik adabiyotlarda keltirib o'tilgan.

A.Potebnyaning tasavvur haqidagi fikrlari quyidagicha: "Tasavvur – tafakkurimizning ajralmas qismi. Tasavvur faqatgina so'zda namoyon bo'ladi. So'z esa boshqa so'zlar bilan birikuvidan qat'i nazar, shakl va tasavvurdan tashkil topgan jonli tildagi fikrning ifodasidir. So'z inson qalbidagi fikrning tashqi ko'rinishidir. U inson tabiatining nozik joyidan (yuragidan) oqib chiqadigan fikrni yaratuvchi qurol (vosita)". Bu o'rinda Tasavvur → fikr → so'z ko'rinishidagi ketma-ketlik hosil bo'lmoqda.

Psixologlarning ta'biricha, tasavvur – inson miyasida sodir bo'ladigan jarayon. Tasavvur inson faoliyatining turli soxalarida muhim rol o'ynaydi. Chunki mehnatning natijasini aniq tasavvur qilmasdan turib kishi ishga kirishmaydi. Mehnatning bo'lajak natijasini tasavvur qilish orqali oldindan ko'ra bilish esa inson faoliyatining hayvonlar instinktiv harakatlaridan tub farqi bo'lib hisoblanadi. Har qanday mehnat jarayonida tasavvur faol ishtirok etadi. Tasavvur, ayniqsa, badiiy, ilmiy, adabiy, texnik, konstruktorlik faoliyatlari, umuman, ijodiy faoliyatning eng muhim tomoni hisoblanadi.

N.V.Samsonovning ta'kidlashicha, tasavvur bu – biz ilgari idrok qilmagan, tajribamizda uchratmagan narsa va hodisalarning obrazlarini mavjud xotira tasavvuri asosida miyamizda yaratishda ifodalanadigan faoliyatga aytiladi. Turmushning muayyan bir sharoiti, odamning bilish, amaliy, axloqiy, estetik va boshqa ehtiyojlari tasavvur jarayoniga sabab bo'ladi.

Ma'lumki, kishilar o'tmishda tabiat berayotganiga qanoat qilmay, uni o'zgartirish, qayta qurish va undan ko'proq narsalarni undirib olish haqida xayol surganlar. Natijada tasavvurida yangi-yangi mehnat qurollari obrazlarini yaratganlar, bu obrazlar asosida esa o'sha qurolning o'zini yasaganlar. Demak, dastlab tasavvur obrazlari tabiatni o'zgartirishga ehtiyoj sezish tufayli kishilarda paydo bo'lgan.

Tasavvur muammoli vaziyat, ya'ni ehtiyojlarni qondirish uchun yangi-yangi usullar qidirish jarayonida vujudga keladi. Boshqacha aytganda, ehtiyojni qondirish uchun ehtiyoj sezayotgan narsani aniq, ravshan tasavvur qilish lozim bo'ladi. Tasavvur jarayoni orqali borliqni aks ettirish aniq obrazlar shaklida, aniq tasavvurlar shaklida bo'lsa, tafakkur jarayoni orqali aks ettirish tushunchalar orqali bo'ladi. Ko'pincha biror ehtiyojni qondirish uchun qilinayotgan faoliyat jarayonida tasavvur va tafakkur barovar ishtirok etadi, ya'ni har bir harakat fikr yuritish orqali amalga oshirilishi bilan birga, harakat usullari yaqqol tasavvur qilib ham turiladi.

Tadqiqotimizning ayrim sahifalarida fantaziya atamasini uchratish mumkin, shuning uchun ham ushbu atamaga alohida to'xtalib o'tishimiz lozim. Chunki tasavvur va fantaziya so'zlarining lug'aviy ma'nolari bir biriga yaqin hisoblanadi. Shunday bo'lsada har ikkalasining vazifalari turlichadir.

Fantaziya – yun. phantasia – xayol, tasavvur, insonning biror narsani o'ylab topishi, tasavvur qilish qobiliyati, ijodiy tasavvur, faraz tushunchalarini anglatadi. Borliqdagi voqea-hodisalar notabiiy, mubolag'a bilan tasvirlanib, ertaklarda, hikoyalarda ba'zan voqealar fantastik tasvirlanadi.

Fantastik rasm haqiqat bilan bog'liq bo'lib, uning elementlaridan yaratilgani uchun emas, eng asosiysi, xayoliy tasavvurda haqiqatning muhim tomoni aks ettirilganligi bilan ba'zi g'oyalar dizaynini

yaratiladi. Tasavvur qilish jarayonida insonning haqiqatga bo'lgan munosabati yorqin, ijodiy va vizual ifodada aks ettiriladi.

### XULOSA

Bizning fikrimizcha tasavvurlar dizayner, ixtirochi, g'oyasi va rejasi haqiqiy imidjga ega bo'lgan va haqiqatning o'zgarishiga yo'naltirilgan faoliyatida namoyon bo'ladi.

Bolalarning o'yinlari xayoliy ishning samarasidir. Ular ijodiy faoliyati bilan xursandchilik qilishadi. Ularning ruhiy asosi ham tasavvur hisoblanadi. Bolalarni o'rganish jarayonida mavhum materiallarni tushunishning zarurati mavjud bo'lib, ular analogiyalarga bog'liq holda o'rganiladi. Ushbu yoshdagi o'zgarishlar ta'lim va o'quv jarayonlarini tashkil qilishda, shuningdek, tasavvurni rivojlanish jarayonini o'rganishda, tashhishlashda hisobga olinishi kerak.

Tasavvur – bu ruhiy jarayonlarning qolgan qismidan tashqari, shuningdek, hislar, fikrlash va xotiralar o'rtasidagi oraliq pozitsiyani egallaydigan inson xayolotining o'ziga xos shakli. Ushbu ruhiy jarayonning o'ziga xosligi shundaki, tasavvur, ehtimol, insonning ajabtovur organizm faoliyati bilan bog'liq bo'lib, ayni paytda barcha ruhiy jarayonlarning paydo bo'lishi asosidir. Ko'rinib turibdiki, tasavvur tushunish va tushuntirish istagidir.

Yuqorida keltirib o'tilgan ilmiy-metodik izlanishlar ta'limning turli bosqichlarida ijodiylikni, ijodkorlikni, tasavvurni rivojlantirishga qaratilgan izlanishlardir. Bizgacha mutaxassislar o'tkazgan ilmiy izlanishlar bizning tadqiqotimiz uchun asos vazifasini bajaradi.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Раҳимов С. Педагогические идеи Абу Али ибн Сины. Автореф. дисс... канд. Пед. Наук. – Т: 1964. Раҳимов С. Абу Али ибн Сино таълим-тарбия ҳақида. – Т.: Ўқитувчи. 2001.
2. Коменский Я.А. Избранные педагогические сочинения. В 2-х т. М.: Педагогика, 2002.Т.1. – 656 с.
3. Ушинский К. Д. [Человек как предмет воспитания. Том II](#) (2006)
4. Нишонова С. Воспитание совершенного человека в развитии педагогической мысли эпохи возрождения Востока.: Автореф. дисс...док.пед.наук. – Т.: 2008. – 37 с.
5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати, -Т.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2007, 5 жилд, 687 бет
6. Жуманиёзов Қ.С. Умумтаълим мактаб ўқувчиларининг геометрик тасаввурини ривожлантириш методикаси. Пед.фан.ном.дисс.– Тошкент: 2001. – 17 б.
7. Фарфиева К.А. Оммавий ахборот воситалари таъсирида талабаларда ижтимоий тасаввурлар шаклланишининг ўзига хослиги. Псих. фан. ном. ...дисс. Т.: 2005. – 47 б.
8. Раҳимов С. Педагогические идеи Абу Али ибн Сины. Автореф. дисс... канд. Пед. Наук. – Т: 1964. Раҳимов С. Абу Али ибн Сино таълим-тарбия ҳақида. – Т.: Ўқитувчи. 2001.-Б. 89.
9. Самсонов Н.В. Развитие воображения у детей. - М.: Изд. В.В. Думнов, 2003.
10. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси, 6-жилд, Тошкент, Ўзбекистон 12.Миллий Энциклопедияси, 2003-йил, 704 бет, 325-бет
13. Қосимова Н.А. Она тили таълими жараёнида ўқувчилар нутқини сўз маънодошлари билан бойитиш. пед. ф. н. диссертация, -Т.: 1998. 156 б.